



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 4 (6)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 4-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

4

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Юлдашев Ш.Г. Конвергенция и поляризация развитых и развивающихся стран в эпоху развития искусственного интеллекта.....	8
Mamatov B.S. Foreign investment is an important factor of economic growth.....	15
Raximova K.N. Raqamli iqtisodiyot sharoitida telekommunikatsiya kompaniyasining rivojlanish tendensiyasi.....	22
Karimov Sh.X. Turizmni barqaror rivojlantirishda hududiy boshqaruv omillarining ahamiyati.....	26
Raximov D.Sh. To‘qimachilik sanoatida diversifikatsiya darajasi va iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili.....	30
Rashidova K. Asalarichilik mahsulotlari bozorida marketing faoliyati samaradorligini oshirish.....	32
Хакимов Д.Р. Процессы, возможности и ограничения экономической интеграции между Республикой Узбекистан и Китайской Народной Республикой.....	37
Olimjanova Sh.O., Eshonqulov I.N. O‘zbekistonda agrar munosabatlarni takomillashtirishda resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish masalalari.....	42
Valikulov Sh.Z. O‘zbekistonda neft-gaz sanoatiga investitsiyalarni jalb qilishning institutsional muammolari va yechimlari.....	48
Ganieva L.S. Bojxona xizmatlari samaradorligini oshirishning nazariy asoslari.....	52
Axrorova N.U. Turizm xizmatlaridan tajriba iqtisodiyotiga o‘tish: evolyutsion tahlil.....	56
Kamilova A.N. Sanoat ishlab chiqarish korxonasida mehnatni normalashtirish menejmentini tashkil etish va takomillashtirish yo‘llari.....	61
Umurzakova Z.S. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni takomillashtirish chora-tadbirlari.....	66
Abdiyeva D.K. Priority directions for improving the national logistics policy in Uzbekistan.....	69
Xalimova N.J. Kreativ turizm: nazariy asoslar va ta’riflar qiyosiy tahlili.....	74
Maxramova N.Y. Strategik menejmentda qadriyatlar zanjiri: raqobatbardoshlikni oshirishning konseptual asoslari.....	78
Zaxirova G., Shavkatova N.O’. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish masalalari.....	82
Maxmudov H., Muxtarova G., Maxmudov H. Ekologik muommolar va ularning mamlakat iqtisodiyotga ta’siri.....	86
Umurzakova M.N., Gulahmadov Sh.A. Davlat ichki va tashqi qarzlarning ijobiy va salbiy jihatlar tahlili.....	89
Xasanov I.M. O‘zbekistonda mulkchilik munosabatlarning transformatsiyasi: tadbirkorlikni rivojlantirish omili sifatida.....	94
Abdullayev M.G’. Personalni boshqarish tizimining ilmiy-nazariy asoslari va uning korxona samaradorligiga ta’siri.....	101
Адилов Б.Б., Абдуллаева М.К. Ўзбекистонда саноат корхоналарини ривожлантириш, тенденциялари.....	105
Абдуғаниев Ё.Ж. Яшил иқтисодиёт - барқарор ривожланиш мақсадларининг янги парадигмаси сифатида.....	112
Xusanboyeva T.M. Talabalarning iqtisodiy tafakkurini shakllantirishda to‘garaklarning o‘rni va ahamiyati.....	116
Xashimova S.N. O‘zbekiston milliy yashil taksonomiyasi mohiyati va ahamiyati.....	120
Mitillayev I.T. Tijorat banklarida kredit risklarini baholashda zamonaviy scoring modellari va ularning samaradorligini oshirish yo‘llari.....	124
Бобоқулова М.Ғ. Инвестиция муҳити ва Ўзбекистондаги инвестиция жараёнларининг динамикаси.....	127
Bekberganova M.R. “O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalari tushumlarining ekonometrik tahlili”.....	134
Рахимова М.Ш. Модернизация системы социальной защиты.....	138
Oqboyev A.R. Tadbirkorlik subyektlari eksport salohiyatini xalqaro standartlar asosida oshirish yo‘llari....	142
Djumanova R.F. Aholi turmush sifatini baholashning metodologik yondoshuvlari.....	147
Mamatov B.S., Umurzakova M.N. Davlat tibbiy sug‘urta tizimida bepul xizmatlar, reimbursasiya va foydalanish shartlari.....	154
Ешимбетов У.Х. Қишлоқ хўжалигини ҳудудий ташкил этиш ва иқтисослаштиришнинг илмий асослари.....	158
Xodjaeva F.K. Sanoat ishlab chiqarishini tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish....	167
Yusupova M. Hududlarda ayollar va yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda institutsional qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish.....	171
Abduxalilov B.Z. O‘zbekistonda IT provayderlar xizmatlari raqobatbardoshligini oshirish: huquqiy va institutsional asoslar.....	175
Abdisamatov A.A. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	178

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 4-son 2026 yil

Abdusalomov I.J. Korxonalarda chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va uning moliyaviy natijalarga ta'siri.....	182
Amirov L.F., Sokhibjonova S.S. Directions for increasing agricultural product exports in the context of a green economy.....	185
Boltaxo'jayeva I.O'. Ways to improve the enterprise management system based on modern management models.....	191
Dehqonov U.M., Sativaldiyeva G. Korxonalarda bo'nak to'lovlari hisobining moliyaviy hisobotga ta'siri va ularni optimallashtirish bo'yicha tahliliy yondashuvlar.....	195
Isoqova M.A. O'zbekistonda yashil energiyadan foydalangan holda kichik biznesni rivojlantirishning institutsional va moliyaviy mexanizmlari.....	199
Mamadaliyev B., Teshaboyev J. Korxonalarda mehnatga haq to'lash hisobini avtomatlashtirish va audit samaradorligini oshirish yo'llari.....	202
Poziljonov M., Teshaboyev X. Davlat muassasalarida asosiy vositalarning hisobini takomillashtirish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish.....	206
Rustamova F.A. Qishloq hududlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlarning roli.....	209
Tursunboyev Q.O. Transport xizmatlari ko'rsatish sohasida kichik tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	213
Umarov T.S. Hududlarda qurilish korxonalarini faoliyatini samarali tashkil etishni ekonometrik modellash va prognozlash.....	216
Xo'jaliyev A.O., Avilov N. Moliyaviy natijalar hisobi va auditda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi.....	220
Xomidov T.T., Arziboyeva R.S. Bank aktivlarining tarkibi va ularni boshqarish omillari.....	223
Xusainov M. Sanoat korxonalarida mahsulot tannaxsini kalkulyatsiya qilish tizimini takomillashtirishning metodologik asoslari va audit mexanizmlarini rivojlantirish.....	227
Begaliyeva M.A., Egamshukurova N.R. Jahon savdo tizimi va milliy iqtisodiyot uchun uning ahamiyati..	231
Gulimboyev S.I. Korxonalarda moliyaviy resurslar taqsimotining zamonaviy usullari.....	235
Ibodov J.Q. Moliyaviy tizimning xizmatlar sohalari va bo'g'inlari.....	239
Jumabayeva K.B. Xalqaro pensiya tizimi modellari va ularning mintaqaviy tamoyillari.....	243
Khusanova Z.R., Yo'ldasheva Z.U. Global trends in the development of international tourism services....	249
Sadullayev M.D. Sanoat korxonalari innovatsion faoliyatini boshqarish.....	252
Tilabov N.T. Davlat qarz siyosatini samarali boshqarish strategiyasini takomillashtirish.....	256
Toshtemirov Y.N. O'zbekistonda logistik faoliyatni rivojlantirishning hozirgi darajasi.....	264
Toshtemirova Z.M. Mahalla institutining iqtisodiy integratsiya jarayonlaridagi strategik ahamiyati.....	268
Uralov E.O. Surxondaryo viloyati xududida sanoatni shakllanishi va rivojlanishi.....	273
Xursanova F.Sh. Budjetlararo munosabatlarning iqtisodiy mazmuni.....	278
Yuldasheva G.A. Investitsion qarorlarni kabul qilishda moliyaviy tahlilning ahamiyati va roli	282
Абдуллаева Р. Тadbirkorlikning zamonaviy kuryentlari.....	287
Юлдашев А. Фаргона вилояти маҳаллаларида инвестиция фаоллигини оширишнинг институционал асослари	292
Abdumalikova Z., Razakova B.S. O'zbekiston sug'urta bozorini moliyaviy texnologiyalar (insurtech) asosida rivojlantirish: imkoniyatlar va yo'nalishlar.....	294
Azimov B.F. Milliy innovatsion tizimni boshqarishda tashkiliy-institutsional va moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlarning roli.....	300
Begaliyeva M.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim tizimida sifat menejmentini samarali joriy etishning ahamiyati.....	304
Dawletmuratov A.M. Xizmatlar bozorini rivojlantirish orqali bandlikni oshirish va daromadlarni ko'paytirish mexanizmlari.....	308
Karimova L.S., Jabborov A.A. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot: holati, muammolar va rivojlanish istiqbollari.....	313
Maxmudov F.U. Oliy ta'lim muassasalarida moslashuvchan marketing strategiyalarini ishlab chiqish mexanizmlari.....	319
Navruz-zoda L.B. Kichik biznes subyektlarining kadrlar salohiyati va bilim infratuzilmasiga bo'lgan talablari: Buxoro viloyati misolida.....	323
Nishonboyev D.E., Abdumalikov S.T. Chorvachilik tarmog'ini innovatsion boshqaruv asosida rivojlantirish istiqbollari.....	327

Nurmirezayeva N.R. Valyuta kursi o‘zgarishining eksport-importga ta’siri: O‘zbekiston misolida amaliy baholash.....	331
Rahimov A.M. Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda qayta ishlash sanoatini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini takomillashtirish.....	335
Ibragimova G.S. Ta’lim sifatini baholashning xalqaro tajribasi va uni joriy etish.....	339
Ravshanova M.M. Hududiy iqtisodiy salohiyatni baholashda zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish va ularning elektron tijorat tizimidagi o‘rni.....	343
Ro‘ziboyeva M. O‘zbekistonda ishchi kuchi migratsiyasi va iqtisodiy o‘sish darajasining o‘zgarish dinamikasi.....	347
Saidova F.K., O‘rozov Sh. Korporativ ijtimoiy mas’uliyat (CSR) va yashil iqtisodiyot: logistika sektorida boshqaruv strategiyalari.....	350
Sultonov S.N. Hududlarda klasterlarini investitsion - innovatsion rivojlantirish istiqbollari (Qashqadaryo viloyati misolida).....	354
Sultonova D.U. Korxona iqtisodiyotida resurslarni boshqarishning raqamli-integratsiyalashgan modelini takomillashtirish.....	358
To‘raxojayev H.H., Hoshimov P.Z. Islomiy banklarning ishlash tamoyili va islom moliya tizimining O‘zbekiston iqtisodiyotiga tadbiqu.....	362
Tursunova N.U. Bridging the innovation gap: development-focused entrepreneurship support and international intermediaries.....	368
Акрамова Г.А. «Роль женщин-ученых в совершенствовании механизмов коммерциализации ремесленных услуг Узбекистана в условиях цифровой экономики».....	374
Болтаев Ж.А. Трансформация банковского сектора в условиях цифровизации мировой экономики..	379
Жунайдуллаев М.А. Жанубий Кореяда рақамли таълим технологиялари орқали индивидуал спортчиларини тайёрлаш тизимини бошқаришнинг миллий хусусиятлари.....	384
Митрушова М.Л. Интеллектуальный капитал как ключевой фактор инновационного развития предприятия.....	388
Муродов О.У. Барқарор ривожланиш тушунчаси ва унинг иқтисодий, ижтимоий ҳамда экологик мезонлари.....	392
Саидова Г., Ибрагимова К., Қурбонов А. Рақамли трансформация шароитида енгил саноат корхоналари маҳсулотларининг халқаро рақобатбардошлигини ошириш стратегиялари.....	396
Sarkarov S.Z. O‘zbekistonda qurilish sohasining texnologik bisqichlar kesimida rivojlanishi.....	401
Minojiddinova N.M. Aksiyadorlik jamiyati korxonalarida xodimlarni samarali boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari.....	406
Ruzmetova I.Y. Xorazm viloyati iqtisodiyotida kichik biznesning o‘rni.....	410
Qudratov D., Ismoilov A. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tarmoqlar rivojidadagi o‘rni.....	414
Qodirov H.D. Soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish orqali davlat byudjeti daromadlarini barqaror oshirish yo‘llari.....	417
Kinjayev K.N. Banklarda kreditlar tasnifini yaxshilash orqali rentabellikni ta’minlash yo‘llari.....	421
Макушина А.Ю. Государственная поддержка экспортного потенциала субъектов малого предпринимательства в Республике Узбекистан.....	424
Rejapov X.X., Oxunjonova K.K. Ixtisoslashtirilgan savdo majmualarini moliyaviy resurslarini shakllantirish va ishlatish yo‘nalishlari – Bek Baraka savdo majmuasi misolida.....	430
Махкамова Н.С. Роль государственно-частных партнерств (ГЧП) в продвижении устойчивого развития	434
Avilov N., Muhammadova G. Korxonalarda materiallar harakatining auditi va iqtisodiy tahlili.....	441
Abdullayeva R.G., Raxmonova I.S. O‘zbekiston qishloq hududlarida bandlikni ta’minlash holati va rivojlanish tendensiyalari.....	444
Yusupova M.B. Ustama ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlashning ABC usuli.....	447
Toshpo‘latov M.A. Ta’lim loyihalarida moliyaviy mablag‘lardan samarali foydalanishning xususiyatlari...	452
Hamidova Sh., Ahmadaliyeva H. Kapital qo‘yilmalarning samaradorlik tahlili.....	458
Хамракулов С.М. Собственный капитал в функционировании экономических субъектов Республики Узбекистан.....	461
Zayavitdinova N.M. Raqamli platformalar asosida xizmat ko‘rsatish korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	465
Turg‘unov T.S. O‘zbekistonda aholi turmush darajasini statistik taxlil qilishning ahamiyati.....	469
Ботирова З.Қ. Рақамли иқтисодиёт шароитида даромадларни бошқаришнинг хусусиятлари....	475
Бегимова Н.К. Меҳнат бозорида гендер тафовутларининг келиб чиқиш сабаблари.....	481

**KORXONALARDA MATERIALLAR HARAKATINING AUDITI VA IQTISODIY
TAHLILI**

**АУДИТ ДВИЖЕНИЯ МАТЕРИАЛЬНЫХ ЗАПАСОВ И ЭКОНОМИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ
НА ПРЕДПРИЯТИЯХ**

AUDIT OF MATERIAL FLOW AND ECONOMIC ANALYSIS IN ENTERPRISES

Avilov Nematjon

Andijon davlat texnika instituti o‘qituvchisi

Muhammadova Gulira’no

Andijon davlat texnika instituti Buxgalteriya hisobi va audit yo‘nalishi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqola korxonalarda materiallar harakatining auditi va iqtisodiy tahliliga bag‘ishlangan. Maqolada materiallar harakatining hisobi, ularning buxgalteriya va ichki audit jarayonlarida nazorat qilinishi, ombor harakatlarining samaradorligi va iqtisodiy samaradorligini oshirish mexanizmlari o‘rganiladi. Shuningdek, material resurslaridan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan muammolar, ularni bartaraf etish yo‘llari va nazoratning tahliliy usullari tahlil qilinadi. Tadqiqot korxonada materiallar harakati bo‘yicha hisobotlarning aniqligi va to‘g‘riligini ta’minlash orqali iqtisodiy foyda va resurslarning optimallashtirilishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: materiallar harakati, audit, iqtisodiy tahlil, ombor, materiallar nazorati, buxgalteriya hisobi.

В данной научной статье рассматриваются вопросы аудита движения материальных запасов и экономического анализа на предприятии. Исследование охватывает методы учёта материалов, организацию контроля движения запасов и выявление недостатков в системах учёта и внутреннего аудита. Анализируются пути повышения эффективности использования материальных ресурсов, укрепления контроля, внедрения автоматизированных учётных систем и обеспечения экономической целесообразности. Работа направлена на обеспечение точности отчетности и оптимизацию использования ресурсов предприятия для повышения его экономической эффективности.

Ключевые слова: движение материальных запасов, аудит, экономический анализ, склад, контроль запасов, бухгалтерский учёт.

This scientific article examines the audit of material flow and its economic analysis within enterprises. The study focuses on accounting methods for materials, the organization of controls over inventory movements, and deficiencies in record-keeping and internal audit practices. It also analyzes approaches to improving the efficiency of resource use, strengthening control mechanisms, adopting automated accounting systems, and supporting economic decision-making. The findings demonstrate how accurate reporting and economic analysis of material movements contribute to optimizing resource use and improving enterprise performance.

Keywords: material flow, audit, economic analysis, inventory control, warehouse management, accounting.

Materiallar — korxona faoliyatining eng muhim resurslaridan biri bo‘lib, ular ishlab chiqarish jarayonida bevosita ishlatiladi va mahsulotning tarkibiy qismi hisoblanadi. To‘g‘ri tashkil etilgan materiallar harakati va ularning hisob-hisoboti korxonaning ishlab chiqarish samaradorligi, resurslardan oqilona foydalanish hamda iqtisodiy ko‘rsatkichlarni yaxshilashga zamin yaratadi. Shu

sababli, korxonalarda materiallar harakatining auditi nafaqat moliyaviy hisobotning ishonchliligini ta'minlash, balki ishlab chiqarish jarayonida resurslardan to'g'ri foydalanilishini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Audit, umuman olganda, korxonaning moliyaviy holati, hisob tizimi va operatsion jarayonlarni mustaqil, sistematik va hujjatlashtirilgan tarzda tekshirishdir. Bu jarayon orqali auditorlar korxonaning materiallar harakatini to'g'ri qayd etilganligi, ularning saqlanishi va sarf-xarajatlari bo'yicha xatoliklar yoki kamchiliklar mavjud emasligini aniqlaydi. Keraksiz, ortiqcha yoki noto'g'ri hisobga olingan materiallar korxona aktivlarining noto'g'ri qiymatlarini shakllantirib, iqtisodiy tahlil natijalariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois, materiallar harakatini audit qilish orqali resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarini aniqlash hamda ularni boshqarish tizimini takomillashtirish zarurati tug'iladi.

Auditorlik va materiallar harakati bo'yicha ko'plab olimlar va tadqiqotchilar o'z qarashlarini ilgari surgan. Masalan, N.A. Alimxonovning “Inventory Audit” bo'yicha ilmiy maqolasida inventarizatsiya auditi tushunchasi, uning auditorlik nazariyasidagi o'rni, metodologik yondashuvlar va audit jarayonlarining nazariy asoslari batafsil tahlil qilingan. Alimxonova auditning materiallar harakati bo'yicha moliyaviy hisobotlar aniqligini ta'minlashda, ichki nazoratni kuchaytirishda hamda resurslar boshqaruvida tutgan roli muhim ekanini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, inventarizatsiya auditi korxona aktivlarining haqqoniy aks ettirilishini ta'minlashga xizmat qiladi, bu esa korxona moliyaviy holatini aniqlash imkonini beradi [1].

Shuningdek, Bilha Saro va hamkasblarining tadqiqoti inventory auditning ta'minot boshqaruvi bilan o'zaro bog'liqligini o'rganadi. Ular inventarizatsiya auditining nafaqat nazorat vositasi, balki ta'minot tizimida samaradorlikni oshirishga xizmat qiladigan vosita ekanini ko'rsatadi. Bu yondashuv inventarizatsiya auditining iqtisodiy samaradorlik tahliliga ham bevosita ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi va materiallar harakati jarayonlarida xatoliklar va ko'rsatkichlar aniqligini oshiradi [2].

Xusvaqto'v Farrux Romanovichning “Tovar-moddiy zaxiralar auditi” maqolasida esa tovar-moddiy zaxiralar auditi nazariy asoslari, amaliy yondashuvlar va uning korxonadagi ichki nazorat tizimi bilan bog'liqligi yoritilgan. Muallif zaxiralar auditi orqali materiallar harakati jarayonlarida hujjatli dalillar asosida risklarni aniqlash va ularni kamaytirish mexanizmlarini chuqur tahlil qiladi [3].

Bundan tashqari, ko'plab iqtisodiy tadqiqotlar inventarizatsiya auditining ichki nazorat samaradorligiga ta'sirini o'rgangan. Masalan, ayrim maqolalarda auditorlik jarayonlarining ichki nazoratga bo'lgan ta'siri muhokama qilingan bo'lib, inventarizatsiya auditining samarali boshqaruv tizimini shakllantirishda strategik ahamiyat kasb etishi ko'rsatildi [4].

Shu bilan birga, audit nazariyasi bo'yicha xalqaro standartlar ham inventarizatsiya jarayonini tekshirishda mustahkam asos yaratadi. Masalan, ISA standarti auditorni inventarizatsiya dalillarini to'plashda “yetarli va mos audit dalillari”ni olish talabini belgilaydi, bu esa audit xulosalarining ishonchliligini oshiradi [5].

Ushbu tadqiqotda materiallar harakatining auditi va iqtisodiy tahlilini o'rganishda nazariy yondashuvlar, standart audit protseduralari va ichki nazorat mexanizmlari asos qilib olindi. Audit jarayoni materiallar harakatini hujjatli tekshirish, nazorat testlari va ichki boshqaruv tizimi bahosi orqali amalga oshiriladi, bu esa nazorat natijalarining ishonchliligini ta'minlaydi. Tadqiqotda nazariy audit metodologiyasi, ya'ni to'g'ri hisobot ma'lumotlarini to'plash va tahlil qilish borasidagi usullar tavsiflandi, shuningdek iqtisodiy tahlil elementlari sifatida ma'lumotlarni solishtirish, o'zaro bog'liqlik tahlili va indikatorlar bo'yicha baholash yondashuvi qo'llanadi.

Materiallar harakati korxona iqtisodiy faoliyatining markaziy tarkibiy qismi bo'lib, uning samaradorligi to'g'ri audit va nazoratning mavjudligiga bog'liq. Tadqiqot davomida O'zbekistonning yirik ishlab chiqarish korxonalaridan biri misolida, 2025-yilning birinchi yarim yilligi uchun materiallar harakati bo'yicha audit natijalari tahlil qilindi. Auditing jarayonida materiallar qabul qilinishi, saqlanishi, iste'mol qilinishi va hisobga olinishi bo'yicha hisobotlar va hujjatlar tekshirildi.

1-jadvalda korxona bo'yicha asosiy materiallar turidagi harakat ko'rsatkichlari taqdim etilgan. Bu jadval orqali har bir material turining kirimi, chiqimi va qoldiqlari aniqlanib, resurslardan samarali foydalanish darajasi baholandi.

1-jadval

Korxonada materiallar harakati (2025-yil I yarim yillik)

Material turi	Boshlang'ich qoldiq (kg)	Qabul qilindi (kg)	Ishlab chiqarishda ishlatilgan (kg)	Oxirgi qoldiq (kg)
Temir	12 000	8 500	18 000	2 500
Yog'	5 000	3 200	6 000	2 200
Plastmassa	7 500	4 000	9 000	2 500
Yog'och	3 000	1 800	4 200	600

Tahlil natijalariga ko'ra, temir va plastmassa materiallari bo'yicha ortiqcha qabul qilinishi kuzatilgan, bu esa resurslarning nojo'ya sarf bo'lishi xavfini oshiradi. Yog' va yog'och materiallari esa samarali ishlatilgan bo'lib, oxirgi qoldiqlar minimal darajada qolgan. Shuningdek, materiallar harakati bo'yicha buxgalteriya va audit hisobotlari o'rtasidagi moslik tekshirildi. Aniqlangan xatoliklar ko'rsatdiki, ba'zi materiallar qabul hujjatlarida va ombor hisobida tafovutlar mavjud bo'lib, ularni tuzatish orqali korxona moliyaviy va iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilash mumkin.

Materiallar harakatini iqtisodiy tahlil qilish jarayonida resurslardan samarali foydalanish koeffitsiyenti hisoblandi. Misol uchun, temir materiallari uchun:

$$\text{Samaradorlik koeffitsiyenti} = \frac{\text{Ishlab chiqarishda ishlatilgan miqdor}}{\text{Boshlang'ich qoldiq} + \text{Qabul qilindi}} * 100$$

$$\text{Samaradorlik koeffitsiyenti} = \frac{18000}{12000 + 8500} * 100 \approx 94,7\%$$

Bu ko'rsatkich korxonada temir materiallaridan yuqori darajada foydalanilganini bildiradi, ammo oxirgi qoldiqning 2 500 kg bo'lishi nazoratning kuchaytirilishini talab qiladi. Yog' va yog'och materiallari bo'yicha bu koeffitsiyent mos ravishda 85% va 90% ni tashkil etdi, bu esa samaradorlikning yetarlicha yuqori ekanligini ko'rsatadi.

Shuningdek, tahlil ko'rsatdiki, audit natijalari va iqtisodiy tahlil bir-birini to'ldiradi. Audit jarayonida aniqlangan hujjat xatoliklari va tafovutlar iqtisodiy tahlil orqali materiallar oqimining samaradorligini yaxshilash uchun tavsiyalar berish imkonini yaratadi. Shu tarzda, korxonada materiallar harakatini optimallashtirish, ortiqcha qabul va sarfni kamaytirish hamda iqtisodiy samaradorlikni oshirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, korxonalarda materiallar harakati auditi va uning iqtisodiy tahlili faqat nazorat vositasi emas, balki biznesning samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi strategik mexanizm hisoblanadi. Audit jarayoni orqali materiallar bo'yicha hujjatlar, hisob-kitoblar va amaliy harakatlar tizimli tarzda tekshiriladi va aniqlik kiritiladi, bu esa resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlaydi. Materiallar harakati bo'yicha amalga oshirilgan iqtisodiy tahlil esa, o'z navbatida, samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlash va uzoq muddatli qarorlar qabul qilish uchun zarur statistik ma'lumotlarni beradi, bu ma'lumotlar korxona boshqaruvida strategik vazifalarni hal etishga yordam beradi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, audit jarayonlarida aniqlangan kamchiliklar — hujjatlashtirishdagi xatoliklar, mos kelmasliklar va nazorat mexanizmlarining yetishmasligi — iqtisodiy samaradorlikni pasaytiradi hamda korxona faoliyatining barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli materiallar harakatini audit qilish bilan birga iqtisodiy tahlilni ham amalga oshirish — bu ikki jarayon bir-birini to'ldirib, korxona resurslarining optimal boshqaruvi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alimkhanova N.A. *Theoretical Foundations of Inventory Audit*. Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting, Vol. 5, No. 09, Toshkent, 2025, pp. 187–191.

2. Marpaung S.A., Siagian H.L., Manalu H.M. *The Effect of Operational Audit and Internal Control on Raw Material Inventory Management*. Jurnal Ilmiah Akuntansi Kesatuan, Vol. 12, No. 1, Bandung (Indoneziya), 2024, pp. 135–146.
3. Xushvaqto F.R. *Tovar-moddiy zahiralari auditi: nazariy asoslari, amaliy yondashuvlar va takomillashtirish imkoniyatlari*. Innovations in Science and Technologies, ilmiy elektron jurnal, Toshkent, 2025.
4. Bilha Saro, Pauline Keitany, Williter Rop. *Inventory Audit and Supply Management: An Evidence of Inventory Control Practices*. East African Journal of Business and Economics, Vol. 4, No. 1, Nakuru (Keniya), 2019–2020.
5. Fatmawati, Nurtang Nurtang, Chaeril Akbar, Masyhuri Masyhuri. *The Role of Inventory Audits in Improving the Effectiveness of Internal Control in Trading Companies*. Journal of Economics, Management, and Accounting, Vol. 1, No. 1, 2025, pp. 304–313.

UDK: 331.5.024.54:338.43 (575.1)

O‘ZBEKISTON QISHLOQ HUDUDLARIDA BANDLIKNI TA’MINLASH HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

СОСТОЯНИЕ И ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ ЗАНЯТОСТИ В СЕЛЬСКИХ РАЙОНАХ УЗБЕКИСТАНА

EMPLOYMENT SITUATION AND DEVELOPMENT TRENDS IN RURAL AREAS OF UZBEKISTAN

Abdullayeva Ra’no Gafurovna,

O‘zbekiston Milliy Universiteti, “Iqtisodiyot fakulteti, “Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrası dotsenti.

Raxmonova Ibodat Saynosimovna,

“Iqtisodiyot” ta’lim yo’nalishi 2-kurs magistratura talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekiston qishloq hududlarida bandlikni ta’minlash va rivojlantirish masalalari ilmiy asosda tahlil qilingan. Shuningdek, so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, xususan, hududiy rivojlanish va bandlikni kengaytirishga qaratilgan davlat siyosati asosiy e’tiborga olingan. Maqolada Rural Enterprise Development Project, World Bank, UNESCO va European Union kabi xalqaro hamkorlik loyihalari doirasida amalga oshirilgan ishlar misol sifatida keltirilgan. Qoraqalpog‘iston, Xorazm, Buxoro va Surxondaryo viloyatlaridagi texnik maktab va kollejlarning modernizatsiyalashuvi, amaliy laboratoriyalar va treninglar orqali yoshlar va ayollar bandligini oshirish jarayonlari yoritilgan. Shuningdek, tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan moliyaviy va konsalting yordamlarining natijasi, yangi ish o‘rinlarining yaratilishi va mahalliy iqtisodiy faollikning kuchayishi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: tadbirkorlik, kasb-mahorat, malaka oshirish, rivojlanish tendensiyalari, yoshlar va ayollar bandligi, Rural Enterprise Development Project, agrar sektor, iqtisodiy diversifikatsiya, qishloq xo‘jaligi texnikasi.

В данной статье научно проанализированы вопросы обеспечения и развития занятости в сельских районах Узбекистана. Основное внимание уделено проводимым в последние годы социально-экономическим реформам, в частности государственной политике, направленной на региональное развитие и расширение занятости. В статье приведены примеры деятельности международных проектов, таких как Rural Enterprise Development Project, World Bank, UNESCO и European Union. Рассмотрены процессы модернизации технических училищ и